



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIIY-EMOTSIONAL KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING O'YIN TEXNOLOGIYALARI ORQALI AMALGA OSHIRILISHI

Gulistan state pedagogical institute

Uzbekistan

Mamatqulova Go'zal Abduraim qizi

Email: mamatqulovag21@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining ahamiyati hamda samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqot davomida turli turdagi o'yin faoliyatlari (didaktik, rol o'yinlari, harakatli va ijodiy o'yinlar)ning bolalarning emotsional intellekti, ijtimoiy muloqot qobiliyati va kommunikativ ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilingan. Kuzatish, suhbat va pedagogik eksperiment usullari qo'llanilgan holda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin texnologiyalarini qo'llash tajribasi o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maqsadli tashkil etilgan o'yin faoliyatlari bolalarda empatiyani, hamkorlik qilish ko'nikmalarini, emotsiyalarni boshqarish va boshqalar bilan munosabat o'rnatish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Maqolada maktabgacha ta'lim amaliyotida o'yin texnologiyalarini samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

KALIT SO'ZLAR: maktabgacha ta'lim, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, o'yin texnologiyalari, ijtimoiy kompetensiya, bolalar rivojlanishi, pedagogik texnologiyalar.hamkorlik ko'nikmasi,psixososial rivojlanish,rol o'yinlari.

KIRISH. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxsiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari faol shakllanadi va rivojlanadi. Zamonaviy psixologiya va



pedagogika fanlari maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga alohida e'tibor qaratmoqda, chunki bu davrdagi tajribalar keyingi hayot faoliyatining asosini tashkil etadi.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati bolalarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va emotsional jihatdan ham to'laqonli rivojlanishini ta'minlashga katta ahamiyat bermoqda. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, "ijtimoiy-emotsional rivojlanish bolaning maktabga tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, kelajakdagi akademik muvaffaqiyat va hayotiy farovonlikning kafolatidir" (UNICEF, 2019)[7]. Emotsional intellekt, empatiyani his qilish, boshqalar bilan muloqot o'rnatish va muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish qobiliyati zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirish uchun zarur kompetensiyalardir.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da bolalarning har tomonlama, xususan ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlash muhim vazifa sifatida belgilangan (PF-60, 2020)[5] Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash va sifatli pedagogik jarayonni tashkil etish zaruriyatini ko'rsatadi.

Ammo amaliyotda ba'zi muammolar mavjudligi kuzatilmoqda. Ko'pgina maktabgacha ta'lim muassasalarida an'anaviy ta'lim usullari ustunlik qiladi va asosan bolalarning kognitiv rivojlanishiga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, hozirgi davrda bolalarda agressivlik, tengdoshlari bilan muloqot o'rnatishda qiyinchiliklar, o'z emotsiyalarini nazorat qila olmaslik kabi muammolar tobora ko'payib bormoqda. Bu holatlar bolalarning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini maqsadli ravishda rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, o'yin faoliyatining pedagogik ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Mashhur rus psixologi Lev Vygotskiy o'yinni "maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati" deb ta'kidlagan va "o'yin bolaning rivojlanishining manbai" ekanligini asoslagan



(Vygotskiy L.S., 1956)[8]. Uning fikricha, o'yin jarayonida bola nafaqat atrofdagi dunyoni o'rganadi, balki ijtimoiy munosabatlarni ham egallaydi. Daniil Elkonin o'yin nazariyasini chuqur ishlab chiqib, "rol o'yini maktabgacha yoshning eng muhim faoliyat turi bo'lib, unda bola kattalar hayotini modellashtiradi va ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi" deb ta'kidlagan (Elkonin D.B., 1999)[3]. U bolalar o'yinida ijtimoiy munosabatlarning aks etishi va shakllanishini ko'rsatib bergan. Aleksandr Zaporozets esa o'yinning emotsional rivojlanishdagi rolini alohida ta'kidlab, "o'yin jarayonida bolaning emotsional tajribasi kengayadi, his-tuyg'ulari murakkaблашади va boyiyadi" deb yozgan (Zaporozets A.V., 1986)[9]. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, o'yin bolaga o'z emotsiyalarini ifodalash va boshqarish imkoniyatini beradi.

Xorijlik tadqiqotchilar ham bu masalaga katta e'tibor bermoqda. Denham va hamkasblarining tadqiqotlari "ijtimoiy-emotsional kompetensiya maktabgacha yoshda faol shakllanadi va keyingi akademik muvaffaqiyat hamda hayotdagi ijtimoiy moslashuvni bashorat qiladi" (Denham S.A., Bassett H.H., Zinsser K., 2012)[2] degan xulosaga keldi. Thompson esa "o'yin bolalarning ijtimoiy tushunchalarini shakllantirish, emotsional regulyatsiyani rivojlantirish va empatiyani o'stirish uchun eng tabiiy va samarali mexanizmdir" deb ta'kidlaydi (Thompson R.A., 2011)[6].

O'zbek olimlaridan Nodira Azizxo'jayeva "o'yin texnologiyalari bolalarning ijodiy va ijtimoiy faolligini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri" ekanligini asoslagan va pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini ko'rsatib bergan (Azizxo'jayeva N.N., 2006)[1]. Sayora Nishonova esa "milliy o'yinlar bolalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali milliy qadriyatlar va an'analar avloddan-avlodga o'tadi" deb ta'kidlaydi (Nishonova S., 2015)[4].

Mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, o'yin texnologiyalarining turli shakllarini ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ta'sirini kompleks o'rganuvchi tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, mahalliy sharoitda, o'zbek bolalari bilan ishlashda bu masalaning amaliy jihatlarini kam o'rganilgan. O'yin



texnologiyalarini maqsadli qo'llash bo'yicha aniq metodikalar va pedagogik amaliyot uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining samaradorligini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: o'yin texnologiyalarining nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish, bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanish darajasini diagnostika qilish, turli o'yin turlarining ta'sir mexanizmlari va samaradorligini o'rganish hamda pedagogik amaliyot uchun samarali metodika va tavsiyalar ishlab chiqish.

METOD VA USULLAR. Ushbu tadqiqot aralash usul asosida olib borildi va uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorgarlik, eksperimental va tahliliy bosqichlar. Tadqiqotda maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnayotgan 5-6 yoshli bolalar ishtirok etdilar. Ishtirokchilar eksperimental va nazorat guruhlariga bo'lindilar. Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanish darajasini aniqlash uchun Denham emotsional kompetensiya shkalasi va pedagogik kuzatish tizimi qo'llanildi. Eksperimental guruhda maxsus ishlab chiqilgan o'yin texnologiyalari dasturi amalga oshirildi. Dastur to'rt yo'nalishni o'z ichiga oldi: didaktik o'yinlar, rol o'yinlari, harakatli o'yinlar va ijodiy o'yinlar.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarda emotsiyalarni tanish va nomlash ko'nikmalari rivojlantirildi. Rol o'yinlari orqali bolalar turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirdilar va empatiyani rivojlantirdilar. Harakatli o'yinlar hamkorlik qilish va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga, ijodiy o'yinlar esa his-tuyg'ularni ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratildi. Mashg'ulotlar muntazam ravishda o'tkazildi va uch oy davom etdi. Nazorat guruhida an'anaviy dastur bo'yicha ta'lim jarayoni davom ettirildi. Tadqiqot davomida tarbiyachilar tomonidan bolalarning kundalik faoliyati va ijtimoiy muloqoti kuzatildi. Eksperimental ish boshida va oxirida diagnostika o'tkazildi va bolalar bilan suhbatlar amalga oshirildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda statistik usullar qo'llanildi. Tadqiqotda etik mezonlarga rioya qilindi va ota-onalardan rozilik olindi.



NATIJA VA MUHOKAMALAR. Tadqiqot boshida o'tkazilgan diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, eksperimental va nazorat guruhleri o'rtasida ijtimoiy-emotsional rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli farqlar mavjud emas edi. Ikkala guruhda ham bolalarning aksariyati o'rtacha rivojlanish darajasida bo'ldi. Boshlang'ich diagnostika natijalariga ko'ra, bolalarning 42 foizi emotsiyalarni tanishda qiyinchiliklarga duch keldi. Ular yuz ifodalaridan kayfiyatni to'g'ri aniqlay olmadilar va faqat eng oddiy emotsiyalarni (quvonch, g'azab) taniy oldilar. Emotsiyalarni ifodalash qobiliyati ham past darajada bo'lib, bolalarning ko'pchiligi o'z his-tuyg'ularini so'zlar bilan to'g'ri ifodalay olmadilar.

Ijtimoiy ko'nikmalar bo'yicha boshlang'ich baholash shuni ko'rsatdiki, bolalarning 42 foizi tengdoshlari bilan muloqotda muammolarga duch keldi. Ular nizo holatlarini mustaqil hal qila olmadilar, o'yinda qoidalariga rioya qilishda qiyinlandilar va boshqalar bilan hamkorlikda ishlashni qiyin deb bildilar. Empatiyani namoyon etish ko'nikmalari ham yetarli rivojlanmagan edi.

Uch oylik eksperimental ish yakunida takroriy diagnostika o'tkazildi. Natijalar eksperimental guruhda sezilarli o'zgarishlar ro'y berganini ko'rsatdi. Eksperimental guruhdagi bolalarning foizi emotsiyalarni tanish bo'yicha yuqori natijalar ko'rsatdi. Ular nafaqat asosiy, balki murakkab emotsiyalarni ham (hafsala pir bo'lish, hayajonlanish, xavotirlanish) to'g'ri aniqlay boshlashdi.. Emotsiyalarni ifodalash qobiliyati ham eksperimental guruhda sezilarli yaxshilandi, bolalar o'z his-tuyg'ularini aniq va to'g'ri so'zlar bilan ifodalay boshlashdi.

Ijtimoiy ko'nikmalar bo'yicha eksperimental guruhda katta yutuqlarga erishildi. Eksperimental guruhdagi bolalar nizo holatlarida tinch muzokaralar olib borishni, o'z nuqtai nazarini madaniy tarzda ifodalashni va murosaga kelishni o'rganishdi.

Pedagogik kuzatish natijalari eksperimental guruhdagi bolalarning kundalik faoliyatida ijobiy o'zgarishlarni qayd etdi. Bolalar o'yinlarda boshqalarga yordam berishni, navbat kutishni va umumiy maqsadga erishish uchun birga ishlashni ko'rsatdilar. Empatiyani namoyon etish ko'nikmalari ham sezilarli rivojlandi.



Експериментал гуруhdagi болалар бoшqаларнинг his-tuyg'ulariga сезгир munosabat bildirishni бoшladi. Ular tengdoshlarining kayfiyatini сезishди, qayg'uli do'stlarini tasalli berishga harakat qilishди va yordamga muhtoj bo'lgan болаларга qo'llab-quvvatlov ko'rsatdilar. etdi. Bolalar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijalari ham ijobiy dinamikani tasdiqladi. Eksperiment oxirida болалар o'z his-tuyg'ulari haqida ancha ochiq va batafsil gapira бoшladilar. Ular turli emotsional holatlarni tavsiflashda boy lug'at ishlatdilar va muammoli vaziyatlarga konstruktiv yechimlar taklif qildilar.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi болаларда ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishda o'yin texnologiyalari yuqori samaradorlikka ega. Maqsadli va tizimli tashkil etilgan o'yin faoliyatlari болаларning emotsiyalarni tanish, tushunish va ifodalash qobiliyatini сезilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, o'yin texnologiyalari orqali болаларда empatiyani, hamkorlik qilish, muloqot o'rnatish va nizo holatlarini tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari muvaffaqiyatli shakllanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, turli turdagi o'yinlar болаларning ijtimoiy-emotsional rivojlanishining turli jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Didaktik o'yinlar emotsional kompetensiyani, rol o'yinlari ijtimoiy tushunchalar va empatiyani, harakatli o'yinlar hamkorlik va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini, ijodiy o'yinlar esa his-tuyg'ularni ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa kompleks yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari amaliyoti uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Tarbiyachilarga o'yin texnologiyalarini kundalik pedagogik jarayonga tizimli ravishda kiritish, har bir o'yin faoliyatiga aniq pedagogik maqsad qo'yish va болаларning individual xususiyatlarini hisobga olish tavsiya etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbariyatiga esa pedagoglar uchun o'yin texnologiyalari bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish va zarur didaktik materiallar bilan ta'minlash taklif qilinadi. Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi болаларning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi va amaliyotchilar uchun foydali yo'nalishlar ko'rsatdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
2. Denham S.A., Bassett H.H., Zinsser K. Early Childhood Teachers as Socializers of Young Children's Emotional Competence // Early Childhood Education Journal. – 2012. – Vol. 40.
3. Elkonin D.B. Bolalar o'yini psixologiyasi. – Moskva: Vldos, 1999.
4. Nishonova S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda milliy o'yinlardan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2015.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60. – 2020.
6. Thompson R.A. Emotion and Self-Regulation // Socioemotional Development in the Toddler Years. – New York: Guilford Press, 2011.
7. UNICEF. Early Childhood Development: The Key to a Full and Productive Life. – 2019.
8. Vygotskiy L.S. O'yin va uning bolalar psixikasining rivojlanishidagi roli. Tanlangan psixologik tadqiqotlar. – Moskva: Pedagogika, 1956.
9. Zaporozhets A.V. Psixologiya. Tanlangan asarlar. – Moskva: Pedagogika, 1986.